



UDK:37.018.43:316.624

Alisher MADRAHIMOV,
Central Asian medical Universiteti o'qituvchisi, PhD
E-mail: alisherw35@gmail.com

PhD M.Berdimuradov taqrizi asosida

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA BULLING HOLATLARINI SOTSIOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim makteblarida kuzatilayotgan bullying holatlarining ijtimoiy-siyosiy, psixologik va madaniy omillari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, kommunikatsion madaniyat pastligi, oiladagi tarbiya uslublari hamda raqamli muhit ta'siri bullying holatlarining shakllanishida asosiy omil sifatida ko'rib chiqiladi. Empirik tadqiqot ma'lumotlariga tayangan holda, bullyingga duchor bo'luvchi o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, agressorlarning xulq-atvori dinamikasi, shuningdek kuzatuvchi sinfdoshlarning pozitsiyasi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Bullying, maktab muhiti, ijtimoiy tengsizlik, jamoaviy munosabatlar, o'quvchi shaxsi, agressiv xulq-atvor, psixologik bosim, ijtimoiy izolyatsiya, kiberbullying, kommunikativ madaniyat, axloqiy normalar, shaxslararo nizolar, sinf jamoasi iqlimi, nazorat va baholash tizimi.

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ БУЛЛИНГА В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДНИХ ШКОЛАХ.

Аннотация

В данной статье проведён научный анализ проявлений буллинга в общеобразовательных школах Узбекистана, рассматриваемых как социально-психологический и культурно обусловленный феномен. Особое внимание уделено влиянию социальных неравенств, недостаточного уровня коммуникативной культуры, специфики семейного воспитания, а также расширяющейся цифровой среды на формирование агрессивных поведенческих моделей среди школьников. Опираясь на результаты эмпирических исследований, раскрываются социально-психологические характеристики учащихся, подвергающихся буллингу, динамика поведения агрессоров и роль наблюдающих одноклассников в воспроизведении или ослаблении ситуации давления. Материал показывает, что буллинг следует рассматривать не только как индивидуальный акт насилия, но и как элемент взаимоотношений внутри школьного коллектива, отражающий структуру социальных ролей и механизмов влияния.

Ключевые слова: Буллинг, школьная среда, социальное неравенство, групповое взаимодействие, личность учащегося, агрессивные поведенческие модели, психологическое давление, социальная изоляция, кибербуллинг, коммуникативная культура, нравственные нормы, межличностные конфликты, социальный климат класса, система контроля и оценок.

SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF BULLYING IN SECONDARY SCHOOLS

Annotation

This article provides a scholarly analysis of bullying incidents observed in general secondary schools in Uzbekistan, examining them as complex social, psychological and culturally conditioned phenomena. The study emphasizes the influence of social inequality, insufficient levels of communicative culture, family upbringing practices, and the expanding digital environment on the formation of aggressive behavioral patterns among students. Drawing on empirical research data, the article identifies the socio-psychological characteristics of students who become targets of bullying, explores the behavioral dynamics of aggressors, and analyzes the position of bystander classmates who may either reinforce or restrain bullying practices. The findings demonstrate that bullying should not be viewed merely as an individual act of violence, but rather as a systemic interactional process embedded in the structure of social roles and power relations within the school environment.

Key words: Bullying, school environment, social inequality, group interaction, student personality, aggressive behavioral patterns, psychological pressure, social isolation, cyberbullying, communicative culture, moral norms, interpersonal conflicts, classroom social climate, monitoring and evaluation system.

Kirish. XXI asr ta'lim tizimi shaxs rivojlanishi, ijtimoiy moslashuv va madaniy o'zaro munosabatlarning shakllanishi uchun murakkab ijtimoiy makon sifatida namoyon bo'lmoqda [1]. Umumiy o'rta ta'lim maktablari nafaqat bilim berish muassasasi, balki o'quvchining shaxsiy o'zini anglash jarayoni, ijtimoiy rol va kommunikativ kompetensiyalarni egallash maydoni hamdir. Shu jarayonda bullying holatlarining yuzaga kelishi o'quvchilar o'rtasidagi kuchlar muvozanatining buzilishi, tarbiya va muloqot madaniyatidagi nomutanosibliklar, hamda oilaviy va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar strukturasidagi muammolar bilan bog'liq [2]. Bullyingning sodir bo'lishi o'quvchi ruhiyati va shaxsiy rivojiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur ijtimoiy hodisani

ilmiy asosda o'rganish va samarali profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi [3].

Bullying hodisasi zamonaviy ijtimoiy munosabatlar tizimida ko'p uchraydigan va shaxslararo o'zaro ta'sir dinamikasida muayyan kuchlar muvozanati buzilishi bilan tavsiflanadigan murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ilmiy manbalarda bullying atamasi ingliz tilidagi "bully" – "bezori, bosim o'tkazuvchi shaxs" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u muntazam, takrorlanib turuvchi, maqsadli ravishda boshqasiga jismoniy yoki psixologik zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlarni ifodalaydi [4]. Norvegiyalik olim D. Olweus bullyingni ijtimoiy tajovuzning strukturaviy ko'rinishi sifatida talqin etib, unda agressor va jabrlanuvchi o'rtasidagi kuchlar

nisbatining nomutanosibligi bosh omil ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bulling tasodifiy mojarro emas, balki tizimli, davomiy va ongli ravishda amalga oshiriladigan bosim jarayonidir. Sotsiologik nuqtayi nazardan, bulling jamoadagi ierarxik munosabatlar, rol taqsimoti va ijtimoiy statuslar tizimi bilan chambarchas bog'liq. Jamoa ichida o'quvchilar o'rtasidagi mavqe farqi, o'zini tasdiqlashga qaratilgan intilish, psixologik raqobat yoki obro' orttirishga bo'lgan ehtiyoj bulling mexanizmlarini faollashtirishi mumkin. Maktab jamoasi yopiq ijtimoiy struktura bo'lgani sababli, undagi kuchlar dinamikasi ko'pincha pedagoglar nazoratidan tashqarida shakllanadi. Shu bois bulling shaxsiy xulq-atvor muammosi sifatida emas, balki jamoa madaniyati va ijtimoiy muhit bilan belgilanadigan jarayon sifatida o'rganilishi lozim. Psixologik yondashuvga ko'ra, bullingning asosida o'quvchilarda empatiya darajasining pastligi, ijtimoiy his-tuyg'ularni boshqarishdagi qiyinchiliklar, agressiv xulq-atvor modelarini ichkilashtirish kabi omillar yotadi [2].

Tadqiqot usullari. Bulling maktab muhitida turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib, ularning har biri o'quvchi shaxsiyati va jamoaviy psixologik muhitga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda bulling shakllarini tizimli tasniflash, hodisani chuqur tushunish va profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi. D. Olweusning ta'kidlashicha, "bullingning mohiyati faqat agressiya darajasida emas, balki uning muntazamligi va ijtimoiy ierarxiya orqali mustahkamlanishida namoyon bo'ladi" [4]. Bulling maktab muhitida bir necha shakllarda namoyon bo'lib, ularning har biri o'quvchi shaxsining ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda bullingning to'rt asosiy ko'rinishi keng tarqalgan bo'lib, ular jismoniy, verbal, ijtimoiy (izolyatsion) va kiberbulling shakllaridan iborat. Ushbu shakllarning har biri o'z mazmuni, ifoda usuli va oqibatlar bilan farqlanadi.

Birinchidan, jismoniy bulling bevosita tana a'zolariga zarar yetkazishga qaratilgan agressiv xulq-atvorni o'z ichiga oladi. Bunga o'quvchini itarish, tepish, urish, uning buyumlarini tortib olish yoki yo'q qilish kabi harakatlar kiradi. Jismoniy bulling natijasida jabrlanuvchida qo'rquv hissining kuchayishi, himoyalana olmaslik kompleksi va o'z-o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi kuzatiladi. Bu holat uzoq muddatli psixologik travmaga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, verbal bulling og'zaki tahqirlash, masxara qilish, kamsituvchi laqablar qo'yish yoki doimiy haqorat qilish ko'rinishlarida kechadi. Bu shakl ko'pincha jismoniy tajovuzdan ko'ra xavfliroq bo'lishi mumkin, chunki u shaxsning o'zini qadrlash tizimiga bevosita zarar yetkazadi. Verbal bulling oqibatida o'quvchida ichki xavotir, o'zini past baholash, o'z fikrini bildirishdan qo'rqish yoki jamoadan chekinish holatlari kuchayadi.

Uchinchidan, ijtimoiy yoki izolyatsion bulling jabrlanuvchini guruhdan chetlashtirish, suhbatdan chiqarib qo'yish, unga nisbatan e'tiborsizlik ko'rsatish kabi jamoaviy ta'sir vositalari orqali amalga oshiriladi. Bunday vaziyatda o'quvchi ajratilgan mavjud ijtimoiy aloqalar tizimidan sun'iy tarzda ajratiladi, natijada u yolg'izlik va ijtimoiy moslashuvning buzilishi kabi salbiy oqibatlarga duch keladi. Bu holat shaxsning jamiyatga integratsiyalanish jarayonini izdan chiqarishi mumkin.

To'rtinchidan, kiberbulling zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan zo'ravonlik shaklidir. Bunda haqoratli sharhlar qoldirish, masxara mazmunidagi foto va videolarni tarqatish, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish kabi harakatlarni kuzatiladi. Virtual makonda tajovuz anonim yoki cheklanmagan auditoriya oldida sodir bo'lgani sababli, kiberbullingning oqibatlari yanada og'ir kechadi: jabrlanuvchida depressiya, ruhiy beqarorlik, ijtimoiy

qo'rquv va hatto o'z joniga qasd qilish xavfi ortadi. Shunday qilib, bullingning har bir shakli o'ziga xos psixologik, axloqiy va ijtimoiy oqibatlarga ega bo'lib, ularni barvaqt aniqlash va oldini olish kompleks yondashuvni talab qiladi.

Yuqoridagidan ko'rinadiki, bullingning barcha shakllari bir-biriga bog'liq bo'lib, jismoniy agressiya ko'pincha verbal yoki ijtimoiy bosim bilan mustahkamlanadi. Raqamli kommunikatsiya kengayishi kiberbulling shaklining yanada jadallashuviga olib kelmoqda. Kiberbulling xavfi uning virtual anonimlik orqali amalga oshirilishi va cheklanmagan auditoriyaga ega bo'lishi bilan bog'liq [5].

Iqtibos sifatida ilmiy xulosa: Sotsiolog O. Levin ta'kidlaydi: "Bulling bu shaxsning ichki tajovuzi emas, balki jamoaning ijtimoiy tuzilishini aks ettiruvchi kommunikativ konflikt modelidir" [5]. Demak, bullingning shakllari ko'p qirrali bo'lib, ular o'quvchilarning ruhiy barqarorligiga, jamoadagi muloqot madaniyatiga va ўқув муҳити хавфсизлигига жиддий таъсир кўрсатади. Шунинг учун профилактика тадбирлари ҳар бир шаклнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда комплекс тарзда амалга оширилиши зарур.

Bullingning vujudga kelish mexanizmini faqat shaxsning xulq-atvori yoki temperament xususiyatlari bilan izohlash biryoqlama yondashuv hisoblanadi. Ushbu hodisa jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimi, madaniy qadriyatlar, tarbiya modeli va kommunikativ stereotiplar bilan bevosita bog'liq. Shu ma'noda bullingning ildizlari ko'proq ijtimoiy-psixologik muhitda, oilaviy tarbiya jarayonida va maktabning ijtimoiy strukturasi shakllanadi [6].

Birinchidan, oilaviy omillar bullingning eng kuchli determinantlaridan biridir. Oilada samimiy muloqotning yetarli emasligi, hissiy sovuqlik, bolaga mehrning cheklangan ko'rinishida namoyon bo'lishi yoki aksincha, nazoratsiz haddan ortiq erkinlik berilishi farzandning boshqalar bilan muloqot tajribasini izdan chiqaradi. Bundan tashqari, jismoniy yoki ma'naviy jazolashga asoslangan tarbiya modeli bola ongida tajovuzni muammolarni hal qilish vositasi sifatida mustahkamlaydi. Oilaviy muhitdagi konfliktlar, nizolar va ziddiyatlar bolada ichki tajovuzni kuchaytirib, uni maktab jamoasiga ko'chirish xavfini oshiradi.

Ikkinchidan, madaniy omillar ham bulling shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatda istehzo, masxara, kamsitish yoki "kuchli – haqli" tamoyilining madaniy me'yor sifatida qabul qilinishi o'quvchilarda tajovuzkor xulq-atvorni normal hol sifatida idrok etishga olib keladi. Ba'zi ijtimoiy guruhlarda agressiya "erkaklik belgisi" yoki "kuch ko'rsatish" timsoli sifatida talqin qilinishi bullingni yanada legitimlashtiradi.

Uchinchidan, iqtisodiy omillar, xususan moddiy tengsizlik va resurslar taqsimotidagi farqlar ham o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy mavqe tafovutini kuchaytiradi. Bunday sharoitda o'quvchilar kiyim-kechak, gadjet, o'quv qurollari, tashqi ko'rinish yoki turmush tarzi orqali ijtimoiy identifikatsiya qilinadi va bu ayrim farqlarni kamsitish yoki ustunlik vositasiga aylantiradi.

To'rtinchidan, zamonaviy raqamli axborot maydonining keskin kengayishi bilan kommunikativ omillar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tajovuz anonim, tez tarqaladigan va keng auditoriyaga ega shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Raqamli kontentning nazoratsiz iste'moli, agressiyani "kulgu" yoki "o'yin" sifatida tasvirlovchi videomateriallar bolalarda real munosabatlarga noto'g'ri yondashuvni shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari va muhokama.

Respondentlarning yoshlar orasida bulling kelib chiqishiga oiladagi qaysi omillarning ta'siri yuqori bo'lishi bo'yicha fikri o'rganilganda, ularning 30,5 %i oilada


muhabbatning yetishmasligi, 29,7 %i oilaviy nizo (janjal), 16,6 %i oiladagi ichkilikbozlik va giyohvandlik, 10,6 %i yosh oila a'zolarining hissiyotlariga befarqlik, 8,6 %i oilaning to'liq emasligi va 3,9 %i boshqa omillarni sabab sifatida ilgari surishgan (1-rasm). Demak, o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, ota-onalarning salbiy xatti-harakatlari aksariyat holatda bolada

zo'ravonlikka moyillikni shakllanishiga sabab bo'lishi aniqlandi. Xususan, bullying ko'pincha bolani haddan ziyod qattiq tartibda tarbiyalash va uning ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldirish kabi holatlarning doimiy tarzda takrorlanib turadigan oilalarda kelib chiqishi kuzatildi [7].



1-rasm. Respondentlarning fikriga ko'ra, oiladagi quyidagi omillar bullyingni kelib chiqishiga sabab bo'ladi

O'quvchilarning maktabdagi bullyingga aralashib qolishiga ota-onalar ta'siri yuzasidan respondentlarning fikri so'ralganda, ularning har 3 nafaridan biri 28,2% kattalarning bolaga nisbatan qo'pol va salbiy mulqoti, 28,2%i haqorat va haddan ziyod tanqid, 26,5%i xohish va ehtiyojlarga qarshi bo'lish kabi omillar salbiy oqibatlariga olib kelishini ta'kidlaganlar (2-rasm). Demak, bolaga nisbatan qo'pol salbiy munosabat, uni haqorat va haddan ziyod tanqid qilish, bolaning o'z xohishi va ehtiyojiga qarshilik ko'rsatish, o'z navbatida, unga salbiy ta'sir etib, turli zo'ravonlik sodir etilishiga sabab bo'lishi aniqlandi [7].



2-rasm. Yoshlarning fikriga ko'ra, maktab o'quvchi-yoshlari o'rtasida bullyingning shakllanishiga kattalarning ta'siri qabday?

Bullingni samarali kamaytirish uchun uni faqat individual xulq-atvor muammosi sifatida emas, balki maktab miqyosdagi ijtimoiy-tarbiyaviy jarayon deb qarash zarur. Chunki bullying jamoa ichidagi munosabatlar tizimi, o'qituvchi-o'quvchi kommunikatsiyasi va oilaviy tarbiya modeli bilan uzviy bog'liq. Shu sababli profilaktika ishlari ko'p bosqichli, tizimli va kompleks bo'lishi kerak. Avvalo, maktab-oilama-halla hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarida empatiya, bag'rikenglik, boshqalarning qadr-qimmatini hurmat qilish, konfliktni zo'ravonliksiz hal qilish kabi ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni shakllantirishda asosiy manba hisoblanadi. Mahalla instituti esa yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ijtimoiy faolligini oshirish va jamoaviy hamkorlik ruhini kuchaytirishda vositachi rolini bajaradi. Maktab tizimi doirasida esa psixologik xizmat faoliyatini mustahkamlash lozim. Psixologlar muntazam diagnostika, individual suhbatlar, guruhviy treninglar va stressni boshqarish bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etishi samarali natija beradi. Sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari va maktab rahbariyati o'rtasida bullying bilan bog'liq holatlarni erta aniqlash va tezkor choralar ko'rish mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur. Muloqotni sog'lom shakllantirish maqsadida maktab ichida

"qo'llab-quvvatlovchi muloqot zonalarini" yoki "xavfsiz suhbat maydonlari" tashkil etish amaliy jihatdan o'zini oqlaydi [7]. Bundan tashqari, rolli treninglar, meditatsiya mashqlari, art-terapiya, drama-terapiya, o'zaro tinglash texnikalari o'quvchilar orasida hamdardlik va o'zini anglash madaniyatini kuchaytiradi.

Xulosa. Bulling – bu individual xatti-harakat yoki tasodifiy mojaro emas, balki jamoa ichidagi ijtimoiy munosabatlar tizimidagi nomutanosiblik, kuchlar balansining buzilishi va kommunikativ madaniyatning yetarli shakllanmaganligini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisadir. U o'quvchining ruhiy barqarorligiga, shaxsiy o'zini anglash jarayoniga, jamoada o'z o'rnini topish imkoniyatiga, shuningdek, maktab muhitining psixologik xavfsizligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bullyingni bartaraf etish masalasi faqat shaxsiy tarbiya yoki jazolash choralariga bog'lanib qolmasdan, balki tizimli, ilmiy asoslangan, kompleks yondashuvlarni talab etadi. Maktab sharoitida bullyingni oldini olishning samaradorligi pedagoglar, psixologlar, ota-onalar va mahalla institutlari o'rtasidagi hamkorlik darajasi bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR

- Goffman E. Predstavlenie sebya drugim v povsednevnoy zhizni. – M., 2000.
- Jo'rayev Q. Psixologiyada hulk-atvor deviasiyalari. – Toshkent, 2021
- O'zbekiston Respublikasi Ma'lumot va axborot xavfsizligi to'g'risidagi Qonun, 2022.
- Olweus D. Bulling at School: What We Know and What We Can Do. Blackwell Publishing, 1993.
- Levin O. School Aggression and Social Groups. Moscow: Akademiya, 2019.
- Yunosov A.B. O'smir-yoshlarda ijtimoiy deviantlik holatlarining sotsiologik xususiyatlari. Sos.f.n. diss. – Toshkent: O'zMU. 2004.
- Madrahimov A.M O'rta maktablarda o'smirlar o'rtasidagi zo'ravonlik (bullying) holatlarini oldini olishning sotsiologik tahlili Sots.f.f. d ... diss. – Toshkent: DBA.